



## IMOM ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL” ASARIDAGI MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHINING TALQINI

*Mahmudov O‘tkir*

*Xoja Buxoriy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi*

*O‘quv ishlari bo‘yicha mudir o‘rinbosari.*

*Oriental universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Imom Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asari tahlil qilinib, undagi moslashmagan aniqlovchi (izofa) haqidagi qarashlar nazariy jihatdan yoritilgan. Muallif arab tilshunosligi tarixida Basra grammatik maktabi an‘analarini tizimlashtirib, nahvni mantiqiy va semantik asoslarda sharhlagan. Zamaxshariy izofani arab tili grammatik tizimining markaziy elementi sifatida talqin qilib, uni ikki turga – izofa ma’naviya (ma’noni aniqlovchi) va izofa lafziya (talaffuzni yengillashtiruvchi) shakllarga ajratadi. Maqolada “Al-Mufassal” asarining arab nahv ilmidagi o‘rni, Zamaxshariy ta’limotining keyingi grammatiklar, xususan, Ibn Ya’ish, Ibn Hishom va as-Suyutiylar merosiga ta’siri ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Zamaxshariy izofani nafaqat grammatik, balki mantiqiy va semantik munosabatlar tizimi sifatida izohlagan bo‘lib, bu yondashuv arab tilshunosligi rivojida yangi bosqichni boshlab bergan.

**Kalit so‘zlar:** Imom Zamaxshariy, Al-Mufassal, arab tilshunosligi, nahv, izofa, moslashmagan aniqlovchi, izofa ma’naviya, izofa lafziya, Basra maktabi, Ibn Ya’ish, arab grammatikasi, semantik tahlil.

Arab tilshunosligi tarixida o‘zining betakror ilmiy maktabi, balog‘atdagi nozik qarashlari va nahv ilmini yuksak darajaga ko‘targan alloma – Imom Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075–1144) o‘z davrining eng yirik grammatik, mufassir va adiblaridan biridir. U Xorazmning qadimiy Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Shu bois unga “Zamaxshariy” nisbatini berishgan. U yoshligidan arab tili, adabiyot,



nahv, balogʻat, tafsir va fiqh fanlarini chuqur oʻrgangan, keyinchalik esa bu sohalarda asarlar yozgan.

Zamaxshariy Bagʻdod, Nishopur, Makka va Basra kabi markazlarda tahsil olgan boʻlib, arab nahv ilmining Basra maktabi yoʻnalishiga mansub olim sifatida tanilgan. U Basra grammatiklarining qatʻiy mantiqiy izchillik va qoidaviy tahlil uslubini yanada mukammallashtirdi. U “Jarulloh” (Allohning qoʻshnisi) laqabi bilan mashhur boʻlib, bu nom unga Makkada uzoq yillar ilm bilan shugʻullangani uchun berilgan.

Zamaxshariy nafaqat grammatik, balki Qurʻon tafsiri sohasida ham ulkan meros qoldirgan. Uning “Al-Kashshof ‘an haqiq at-tanzil” asari tafsir ilmining yuksak namunasi boʻlib, unda lugʻaviy va nahviy tahlil usullari keng qoʻllanilgan. Ammo aynan “Al-Mufassal fi sanʻatil iʻrob” asari arab tili grammatikasining eng yirik ilmiy yutugʻi sifatida baholanadi.

“Al-Mufassal” arab tili grammatikasining tarixida Basra maktabi ilmiy anʻanalarini mukammal tarzda tizimlashtirgan, nahv ilmini mantiqiy asoslarda tahlil qilgan asardir”<sup>1</sup>.

“Al-Mufassal” arab tili grammatikasining eng muhim manbalaridan biridir. Asar hijriy VI asrda yozilgan boʻlib, nahv ilmining barcha boʻlimlarini oʻz ichiga olgan: ism, feʻl va harfning turlari, iʻrob qoidalari, tobe soʻzlar, jumla tarkibi, izofa, aniqlovchilar va hokazolar.

Asarning “Al-Mufassal” deb nomlanishiga sabab – unda arab tilining nahviy tizimi mantiqan tartib bilan “batafsil” (mufassal) bayon qilinganidir. U qisqa, lekin chuqur mazmunli uslubda yozilgan boʻlib, arab grammatikalari orasida eng ixcham, ammo eng ilmiy asarlardan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Imom Mahmud Az-Zamaxshariy. Al-Mufassal. Qohira: Darul-Maorif, 1959. – B. 7



Zamaxshariy asarni o‘z davrida nahv ilmidagi chalkashliklarni bartaraf etish, arab tili sintaksisini yagona mantiqiy tizimga solish maqsadida yozganini o‘zi ham kirish qismida ta’kidlaydi:

“Men bu asarni arab tilining asl qoidalarini, fasohat manbalarini aniq dalillar bilan bayon etish uchun yozdim”<sup>2</sup>.

Asar keyinchalik yuzlab grammatiklar tomonidan sharh qilingan. Eng mashhurlaridan biri – Ibn Ya’ishning “Sharh al-Mufassal” asaridir. Bu sharh o‘z navbatida o‘rta asr arab tilshunosligining tayanch manbalaridan biri bo‘lib qoldi.

Zamaxshariy “Al-Mufassal” asari orqali arab nahvini mantiq, balog‘at va tafsir ilmlari bilan uyg‘unlashtirdi. Bu jihat bilan u oldingi grammatiklardan – Sibavayh, Mubarrad, Farro‘ va boshqa Basra maktabi namoyandalaridan – farq qiladi. U so‘zlarni nahviy bog‘lanish asosida emas, balki ma’no va vazifasi asosida tasniflaydi. Shu sababdan “Al-Mufassal”da moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar masalasi mustaqil qoidalar bilan izohlanadi.

Zamaxshariy uchun til – nafaqat ifoda vositasi, balki fikr va mantiq tuzilmasining ramziy tizimi edi. Shu bois u grammatikani “aqlning tili”, nahvni esa “tartib va mantiq ilmi” deb atagan. “Nahv – aqlning mezoni, so‘zning tarozusidir”<sup>3</sup>.

“Al-Mufassal”ning o‘ziga xosligi shundaki, unda arab tilidagi aniqlovchilar masalasi chuqur tahlil qilingan. Zamaxshariy bu bo‘limda aniqlovchilarni ikki turga bo‘ladi:

1. Moslashgan aniqlovchi – sifat, ta’kid, badal, atf kabi so‘zlar ega bilan jins, son, holatda mos keladi.

2. Moslashmagan aniqlovchi – izofa (muzof – muzof ilayh) yoki tarkibiy birikmalarda moslashmay, ma’nodagi bog‘lanish orqali birikadi.

Bu tasnif keyinchalik arab grammatikasining barcha asosiy manbalarida o‘z aksini topdi. Zamaxshariy nahviy tahlilda “moslashmagan aniqlovchi”ni ma’no

<sup>2</sup> Imom Mahmud Az-Zamaxshariy. Al-Mufassal. – Qohira: Darul-Maorif, 1959. – B. 2

<sup>3</sup> Ibn Ya’ish. Sharh al-Mufassal. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1985. – B. 9



bilan bog‘liq, lekin i‘rob bilan mustaqil birlik sifatida ko‘rsatgan. Shu jihati bilan u zamonaviy sintaktik nazariyalar bilan uyg‘un fikrni ilgari surgan.

Zamaxshariy asari keyingi asrlarda Andalusiya, Bag‘dod va Movarounnahr nahv maktablarida asosiy o‘quv manba sifatida o‘qitilgan.

Masalan, Ibn Ya‘ish uni sharhlab, har bir jumladagi i‘rob izohlarini keng tahlil qilgan. Sakkokiy esa “Miftah al-Ulum” asarida Zamaxshariy qarashlarini balog‘at ilmi bilan bog‘lab, uning grammatik ta‘sirini kuchaytirgan. Jurjoniy esa “Dala‘il al-i‘joz” asarida nahviy tuzilmani ma‘no tizimining asosi sifatida sharhlash orqali Zamaxshariy uslubini davom ettirgan.

“Zamaxshariy nahv ilmini balog‘at bilan birlashtirib, arab tili qonuniyatlarini Qur‘on uslubida namoyon etdi”<sup>4</sup>.

O‘rta asrda o‘zbek, fors va turk tillarida yaratilgan grammatik manbalar ham “Al-Mufassal” ta‘sirida shakllangan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur davrida arab tili grammatikasining bu tizimi turkiy sintaksis tahlilida qo‘llanilgan<sup>5</sup>. Shu jihatdan, Zamaxshariy merosi turkiy tilshunoslikning tarixiy asoslaridan biri bo‘lib qoldi<sup>6</sup>.

“Al-Mufassal” arab tili grammatikasi tarixida ilmiy tizimlashtirishning eng yuksak bosqichi bo‘lib, Imom Zamaxshariy nahv ilmini nafaqat qoidalar to‘plami, balki mantiqiy, ma‘noviy va falsafiy asoslar bilan mustahkamlangan tahlil tizimi sifatida bayon etgan. Uning asarida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar tushunchasi, ayniqsa ikkinchisi – ma‘no bilan bog‘liq, ammo grammatik jihatdan mustaqil birlik sifatida talqin etilishi, arab tilshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi.

Shunday qilib, “Al-Mufassal” faqat grammatika emas, balki arab fikrlash madaniyatining til orqali ifodasi sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

<sup>4</sup> Abdulqohir Jurjoniy. Dala‘il al-i‘joz. – Qohira: Dar al-Maorif, 1960. – B. 33

<sup>5</sup> Sirojiddinov Sh. O‘zbek tili grammatikasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 21.

<sup>6</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O‘zbekiston, 1982. – B.127.



**2. Imom Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarida moslashmagan aniqlovchining talqini mohiyati va nahviy vazifasi.** Imom Zamaxshariy o‘zining “Al-Mufassal” asarida arab tilidagi izofa hodisasini grammatik tizimning markaziy unsurlaridan biri sifatida talqin qiladi. U deydi:

لا يكون الاسم مجروراً إلا بالإضافة، وهي المقتضية للجر، كما أن الفاعلية والمفعولية هما المقتضيان للرفع والنصب

“Ism (ot) hech qachon jar holatda bo‘lmaydi, magar izofa sababli bo‘ladi. Chunki izofa jarning sababidir, xuddi foillik (fa’iliyya) va maf’uliyat nasb va raf’ning sabablaridir”<sup>7</sup>.

Bu jumla orqali Zamaxshariy izofani grammatik sabab (عامل معنوي) sifatida ta’riflaydi. Ya’ni, izofa – bu nafaqat so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanish shakli, balki ma’noni taqozo qiluvchi semantik aloqa hamdir. Unga ko‘ra, ismning jar bo‘lishi tashqi omil (masalan, harf al-jar) emas, balki ichki bog‘lanish, ya’ni izofa sababli yuz beradi.

Bu nuqtai nazar arab tilidagi moslashmagan aniqlovchining tabiati haqida juda muhim nazariy asoslarga ega. Chunki izofa tizimi – bu ikki ism orasidagi aniqlovchi-aniqlanuvchi munosabat bo‘lib, unda shakliy moslashuv emas, balki ma’no bog‘liqligi ustuvor hisoblanadi.

Imom Zamaxshariy izofani ikki asosiy turga ajratadi:

”وإضافة الاسم إلى الاسم على ضربين: معنوية ولفظية”

“Ismning ismga izofalanishi ikki xil bo‘ladi: ma’naviya va lafziya”<sup>8</sup>.

1. Izofa ma’naviya – bu bog‘lanish so‘zning ma’nosini o‘zgartiruvchi, uni aniqlik yoki xususiylik bilan ta’riflovchi aloqa shaklidir. Masalan:

دارُ عمرو (Amrning uyi) – ta’rif beradi (ma’rifat), غلامٌ رجلٍ (bir kishining quli) – taxis beradi (xususiylik).

Zamaxshariy bu holatni shunday izohlaydi:

<sup>7</sup> Az-Zamaxshariy. Al-Mufassal fi san’ati-l-i’rob. – Qohira: Darul Maorif, 1986. – B. 88.

<sup>8</sup> Ibn Ya’ish. Sharh al-Mufassal. – Bayrut: Dar al-Kutub al-’Ilmiyya, 1991. – J. I. – B. 64.



“ولا تخلو في الأمر العام من أن تكون بمعنى اللام... أو بمعنى من”

Ya’ni, izofa ma’naviya “lam” (mulklik) yoki “min” (tarkib yoki jins) ma’nosini anglatadi:

مال زيد – “Zaydning moli” (lam ma’nosida),

خاتم فضة – “kumush uzuk” (min ma’nosida).

Demak, izofa ma’naviya – bu moslashmagan aniqlovchining klassik shakli bo‘lib, aniqlovchi (muzof) ma’noda aniqlanuvchiga (muzof ilayh) bog‘liq bo‘ladi, lekin grammatik moslashuv (ya’ni jins, son, holatda o‘xshashlik) talab etilmaydi.

2. Izofa lafziya – bu izofa grammatik yengillik (taxfif) uchun ishlatiladi.

Masalan:

ضارب زيد – “Zaydni uruvchi”,

زيد حسن الوجه – “Zaydning yuzi go‘zaldir”.

Zamaxshariy ta’kidlaydi:

ولا تفيد إلا تخفيفاً في اللفظ والمعنى كما هو قبل الإضافة

Ya’ni, izofa lafziya faqat talaffuzni yengillashtiradi, ma’noga ta’sir qilmaydi<sup>9</sup>.

Bu tasnif orqali u moslashmagan aniqlovchining ikki shaklini farqlaydi: biri ma’noni o‘zgartiruvchi (ma’naviya), ikkinchisi shaklni yengillashtiruvchi (lafziya).

Imom Zamaxshariy yana shunday yozadi:

“قضية الإضافة المعنوية أن يُجَرَّد لها المضاف من التعريف”

“Izofa ma’naviyaning xususiyati shundaki, u uchun mudof (aniqlovchi) ta’rifdan xoli bo‘ladi”<sup>10</sup>.

Bu bilan u shuni nazarda tutadiki, ma’navi izofada aniqlovchi (muzof) mustaqil ma’rifa bo‘lolmaydi, balki muzofi ilayhga bog‘liq holda aniqlik oladi. Masalan: الرجل بيت الرجل (“erkakning uyi”)da “بيت” so‘zi aniqlovchi bo‘lsa-da, “الرجل” orqali aniqlik oladi.

<sup>9</sup> Imom Jaloliddin As-Suyutiy. Al-Muzhir fi ulum al-lug‘a. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1998. – J. II. – B. 93.

<sup>10</sup> Ibn Hishom. Mug‘niy al-labib. – Qohira: Maktabat al-xonjiy, 2002. – B. 47.



Shuningdek, Zamaxshariy Kufalik grammatiklarning “الثلاثة الأثواب” (“uchta kiyim”) kabi ifodalarini tanqid qiladi va ularni nahviy qoidaga zid deb hisoblaydi. Chunki, uning nazarida, son so‘zlari bilan kelgan izofa ma’naviy aniqlik bermaydi, faqat sanash vazifasini bajaradi<sup>11</sup>.

Zamaxshariy qo‘shimcha bir faslda izofa bilan olmosh (zamid) o‘rtasidagi grammatik bog‘liqlikni ham tahlil qiladi:

“وإذا كان المضاف إليه ضميراً متصلاً جاء ما فيه تنوين أو نون... في صحة الإضافة”

“Agar mudof ilayh ulanishi (izofalanishi) zamir bilan bo‘lsa, unda tanvin yoki nun bo‘lgan so‘zlarda izofa shartli holda joiz bo‘ladi”<sup>12</sup>.

Bu fikr nahv tarixida muhim yangilikdir, chunki Zamaxshariy bu bilan moslashmagan aniqlovchining olmosh bilan izofa hosil qilish qoidalarini belgilaydi. Unga ko‘ra, tanvinli yoki nunli so‘zlarda (masalan, ism faol shakllari) zamir bilan izofa faqat fonetik muvozanatni buzmaguncha ishlatiladi:

الضارئك (seni uruvchi) – joiz,

الضاربانك – kam ishlatiladi.

Shunday qilib, u izofaning nahviy (grammatik) chegaralarini aniq belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, Zamaxshariy “Al-Mufassal”da izofani – ya’ni moslashmagan aniqlovchi tizimini – arab tili nahvining eng muhim bog‘lovchi unsuri sifatida tahlil qiladi. U izofaning nafaqat sintaktik, balki semantik asosini ham belgilaydi. Unga ko‘ra, izofa ma’naviya ma’no jihatdan aniqlik keltiruvchi, izofa lafziya esa talaffuzni yengillashtiruvchi vositadir. Bu ta’limot keyingi grammatiklar, xususan, Ibn Ya’ish, Ibn Hishom va as-Suyutiylarning asarlarida keng davom ettirilgan.

<sup>11</sup> Shayx Mustafo Al-G‘alayoniy. Tarix an-nahv al-arabiy. – Damashq: Al-Ma’had al-Arabiy, 1999. – B. 115.

<sup>12</sup> Ibn Molik Muhammad ibn Abdulloh. Sharh at-tashil. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1993. – J. II. – B. 78.



## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulqohir Jurjoniy. Dala'il al-i'juz. – Qohira: Dar al-Maorif, 1960. – 250 bet.
2. Imom Mahmud Az-Zamaxshariy. Al-Mufasssal. Qohira: Darul-Maorif, 1959. – 320 bet.
3. Ibn Ya'ish. Sharh al-Mufasssal. – Bayrut: Dar al-Kutub al-ilmiyya, 1991. – J. I. – 486 bet.
4. Imom Jaloliddin As-Suyutiy. Al-Muzhir fi ulum al-lug'a. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1998. – J. II. – 412 bet.
5. Ibn Molik Muhammad ibn Abdulloh. Sharh at-tashil. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1993. – J. II. – 518 bet.
6. Ibn Hishom. Mug'niy al-labib. – Qohira: Maktabat al-xonjiy, 2002. – 616 bet.
7. Shayx Mustafo Al-G'alayoniy. Tarix an-nahv al-arabiy. – Damashq: Al-Ma'had al-Arabiy, 1999. – 264 bet.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'zbekiston, 1982. – 346 bet
9. Sirojiddinov Sh. O'zbek tili grammatikasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2003. – 280 bet.